



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 HOSHIMXONOV AHROR MO’MINOVICH**
O‘zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish
istiqbollari
- 14 ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq
intizomini ta’minlashning nazariy-huquqiy mexanizmlari
- 24 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Huquq va qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy-huquqiy
prinsip sifatida
- 31 MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O’G’LI**
Davlat xaridlari tizimida manfaatlar to’qnashuvining
oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini
- 44 BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O’G’LI**
Sun’iy intellektni ta’lim olish jarayoniga tatbiq
etishning ayrim jihatlarini

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 53 XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
Raqamli moliyaviy xizmatlar tushunchasi, tarixiy
rivojlanish va huquqiy asoslari
- 64 АЪЗАМХУЖАЕВ УМИДХОН ШАВКАТ УГЛИ**
Национальные правовые аспекты реализации
функций государства при создании и развитии
международных транспортных коридоров
- 73 NAEEM ALLAHRAKHA**
Practices of the advertisement legislation of the
Republic of Uzbekistan

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.
IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

- 91 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI**
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari
transformatsiyasi va notipik mehnat munosabatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

101 MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

Flora qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari va zamonaviy tendensiyalar

110 XAYITOV PANJI BUXAROVICH

“Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

117 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish va majburan to'xtatish holatlari tahlili

127 MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH

Bezorilik: jinoiy-huquqiy kvalifikatsion muammolar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

141 RASHIDOV BEZXOD NURBOEVICH

**ABDUVAHOBOV SHERZODBEK
ABDUVAHOBOVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda mutaxassisning protsessual maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

149 BEGATOV JASURBEK NUMONJANOVICH

Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh va Yaponiya misolida)

**160 ZAHMATKASH, FIDOIY, SIVILIST OLIM VA
USTOZ RUZINAZAROV SHUXRAT
NURALIYEVICHNING YORQIN VA IBRATLI
HAYOT YO'LI**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.1./DBHZ6736>
UDC: 343.23(045)(575.1)

JINOYAT SODIR ETISHDAN IXTIYORIY QAYTISH VA MAJBURAN TO'XTATISH HOLATLARI TAHLILI

Kamalova Dildora Gayratovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID:0000-0001-6747-8883
e-mail: d.kamalova@tsul.uz

Annotatsiya. Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to'xtatsa, shuningdek, jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning xususiyati qilmish shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmasligida ifodalanadi. Shaxs boshlangan ijtimoiy xavfli, g'ayriqonuniy qilmishini o'zining ichki his tuyg'usi asosida, oqibatlarini anglagan holda, muqarrar ravishda to'xtatadi. Aynan shuning uchun ham qonunchilikda jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan shaxslar uchun javobgarlik kelib chiqmasligi belgilangan. Biroq muhim masalalardan biri aynan jinoyatdan voz kechish holati "ixtiyoriy" bo'lganligini aniqlash, shaxsning jinoyatini to'xtatishiga turtki bo'lgan omillarni o'rganish va shu asosda qilmishga to'g'ri huquqiy baho berish hisoblanadi. Ntijada, sud va tergov amaliyotida jinoyatdan ixtiyoriy voz kechish va jinoyatni majburan to'xtatishni o'zaro farqlash qiyinchilik tug'dirmoqda. Jinoyatni ixtiyoriy va majburiy to'xtatish holatlarini tadqiq qilish, farqli jihatlarini batafsil tahlil qilish va javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan holatlarni aniqlash ilmiy maqolaning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Mazkur maqolada muallif tomonidan jinoyatni to'xtatishga turtki bo'lgan omillar tadqiq etilgan, o'xshashligiga ko'ra guruhlashtirilgan va amaliyot misollari orqali batafsil tahlil qilinib, jinoyat huquqi nazariyasini rivojlantirishga oid xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatdan ixtiyoriy qaytish, yengib bo'lmaydigan holatlar, qiyinchilik tug'diradigan holatlar, ixtiyoriylik, majburiy to'xtatilganlik.

АНАЛИЗ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ ДОБРОВОЛЬНОГО ОТКАЗА И ВЫНУЖДЕННОГО ПРЕКРАЩЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЯ

Камалова Дилдора Гайратовна,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
декан факультета уголовного правосудия
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В случаях когда лицо прекращает подготовительные действия к преступлению или действия, непосредственно направленные на совершение преступления, осознавая, что оно может быть доведено до конца, а также, зная последствия наступления преступления, их предотвращает, это считается добровольным отказом от совершения преступления. Специфика добровольного отказа от совершения преступления выражается в том, что деяние не доводится до конца по зависящим от лица обстоятельствам. Лицо, руководствуясь своим внутренним чувством, осознавая неизбежные последствия, прекращает

начавшееся общественно опасное противоправное деяние. Именно по этой причине в законе предусмотрено отсутствие ответственности для добровольно отказавшихся лиц. Однако одним из важных вопросов является определение того, была ли ситуация отказа от преступления «добровольной», изучение факторов, побудивших лицо прекратить преступление, и на этом основании дать правильную юридическую оценку деянию. Поэтому в судебно-следственной практике возникают сложности разграничения добровольного отказа от преступления и вынужденного прекращения преступления. Изучение случаев добровольного отказа и вынужденного прекращения преступления, детальный анализ их отличительных признаков и определение ситуаций, не влекущих ответственность, является объектом исследования данной научной статьи. Автором изучены факторы, побуждающие к прекращению преступления, они сгруппированы по схожести и подробно проанализированы с приведением практических примеров, разработаны выводы по развитию теории уголовного права.

Ключевые слова: добровольный отказ от преступления, непреодолимые препятствия, затрудняющие препятствия, добровольность, вынужденное прекращение.

ANALYSIS OF CASES OF VOLUNTARY RENUNCIATION AND FORCED TERMINATION OF A CRIME

Kamalova Dildora Gayratovna,
Dean of Faculty of Criminal Justice,
Tashkent State University of Law
Doctor of Philosophy in Law (PhD),

Abstract. A voluntary renunciation to commit a crime is considered when a person stops doing preparatory actions or directly aimed at the commission of an offence, knowing that it may be ended and that it could lead to criminal consequences. The specificity of a voluntary renunciation to commit a crime is that the act is not completed due to circumstances depending on the person. A person, on the basis of his inner feeling, being aware of the consequences, inevitably ceases the beginning of a socially dangerous, wrongful act. It is for this reason that the law provides for the absence of liability of voluntary objectors. However, one of the important questions is to determine whether the abandonment of the crime was «voluntary», to study the factors that caused the person to stop the crime, and on this basis to give a correct legal assessment of the act. It is therefore difficult in judicial and investigative practice to distinguish between voluntary renunciation of a crime and compulsory punishment of a crime. This research article is focused on examining cases of voluntary and forced crime termination, analyzing their unique features, and determining cases that do not involve liability. The author studied the factors leading to the cessation of crime, grouped them according to their similarities, and analyzed them in detail with practical examples. They developed conclusions on the development of the theory of criminal law.

Keywords: voluntary renunciation of a crime, insurmountable obstacles, obstructing obstacles, voluntariness, forced termination.

Kirish

Bugungi kunda tergov va sud amaliyotida jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish mavjud bo'lgan holatlar ham jinoyatga suiqasd sifatida malakalanib, shaxsni jazoga tortish holatlari kuzatilmoqda. Buning boisi, tergov va sud amaliyotida jinoyatdan ixtiyoriy voz kechish va jinoyatni majburiy to'xtatishni o'za-

ro farqlash qiyinchilik tug'dirmoqda. "Mazkur ikkita huquqiy hodisaning yuridik oqibatlariga ko'ra o'zaro qarama-qarshi, ya'ni birinchi holatda qilmish jinoyat deb topilmaydi, ikkinchisida esa tamom bo'lmagan jinoyatni tashkil etadi. Obyektiv va subyektiv belgilariga ko'ra ular o'zaro o'xshash. Xususan, obyektiv

belgilariga ko'ra ikkala holatda ham qilmish oxiriga yetkazilmaydi. Subyektiv belgilariga ko'ra o'xshashligi shundaki, shaxs boshlangan qilmishini o'zining ongli qarori asosida to'xtatadi" [1].

Shu bilan birga, ular o'zaro bir-biridan farqlanadi: birinchi holatda shaxs jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytadi, ikkinchi holatda shaxsning xatti-harakati irodaviy, ongli bo'lsa-da, ixtiyoriy hisoblanmaydi. Ilmiy maqolada jinoyatni ixtiyoriy va majburiy to'xtatish holatlari tahlil qilinib, ixtiyoriy qaytish deb baholash shartlari, o'ziga xos jihatlari amaliy misollar orqali tahlil qilingan.

Material va metodlar

Ushbu ilmiy maqoladagi mavzuni tadqiq etishda analiz va sintez, deduksiya va induksiya, tarixiylik, mantiqiylik kabi tadqiqot usullari qo'llangan.

Mazkur mavzu yuzasidan o'zbek olimlaridan M. Usmonaliyev, P. Bakunov, M.X. Rustamboyev, A.S. Kayumov, A.A. Otajonov; xorijiy olimlardan S.N. Bezugliy, A.I. Orlova, A.I. Plotnikov, S.Y. Sutsiyev, A.A. Shakirova, David Ormerod, Karl Lairdlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari

Ixtiyoriy qaytishda jinoyat sodir etishga to'sqinlik qiladigan holatlar xususiyati va jinoyat sodir etayotgan shaxs ta'siriga ko'ra ikkiga ajratilishi maqsadga muvofiq: a) yengib bo'lmaydigan holatlar; b) qiyinchilik tug'diradigan holatlar.

Jinoyat sodir etishga to'sqinlik qiluvchi holatlar yuz berganda qilmishni davom ettirish imkoniyati mavjudligini aniqlash uchun *jinoyatning obyektiv ko'rsatkichlari va subyektiv ko'rsatkichlari* tahlil qilinishi lozim. Yuz bergan to'siqlar noodatiy bo'lganda, qo'shimcha mezonlar subyektning individual qobiliyatlari asosida baholanishi lozim. Jumladan, subyekt ularni bartaraf etishi yoki yengib o'tishi mumkin bo'lganda, yuz bergan to'siqlar jiddiy to'sqinlik qiluvchi holatlar deb topilmaydi. O'z navbatida, ularning

mavjudligi ixtiyoriy qaytishga ta'sir ko'rsatmaydi.

"Ixtiyoriylik" belgisini aniqlashda obyektiv va subyektiv belgilar muhim ahamiyat kasb etadi. Obyektiv belgi jinoyat sodir etishni boshlagan shaxsning jinoyatni oxiriga yetkazishga real imkoniyati mavjudligini anglatadi. Subyektiv mezon, ya'ni subyektning jinoyatni davom ettirish obyektiv imkoniyatini anglanganligi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ixtiyoriylikning ma'nosi shundaki, jinoyatni oxiriga yetkazish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, lekin fosh bo'lish va natijada jazoga tortilish xavfi mavjud bo'lmagan bo'lishi lozim [1, 269-b., 2, 150-b.]. Agar xavf mavjud bo'lsa, jinoyat ichki motivlar ta'sirida emas, balki yuzaga kelgan vaziyat bosimi ostida to'xtatilib, inson xulq-atvorini o'zgartirishga majbur qiladi. Bu esa ixtiyoriy qaytishning mohiyatiga to'g'ri kelmaydi.

Aytish kerakki, jinoyat sodir etishni boshlagan shaxs o'z ixtiyori bilan jinoyatni oxiriga yetkazishdan bosh tortgan hollarda, jinoyatni davom ettirishga hech qanday tashqi holatlar to'sqinlik qilmaydi. Bunday holatda qilmish ixtiyoriy qaytish deb topilib, javobgarlikni yuzaga keltirmaydi.

Masalan, K. sobiq xotini N.ning uyiga kelib, qo'lidagi pichoq bilan N.ga tahdid qilib, xonaga yugurib kirib, N.ning bosh qismiga pichoq bilan urib, sog'lig'ining qisqa muddatga buzilishiga olib kelgan yengil tan jarohati (peshona qismining o'tkir jism bilan kesilishi, burun suyuklarining yorilishi) yetkazgan. N. boshqa xonaga chiqib ketganda K. orqasidan yetib kelib, qo'li bilan N.ning bo'yin qismiga urib, yiqitib, bo'g'ib, "Men bilan yashaysan yoki o'ldiraman" deb tahdid qilib turgan vaqtda N. "Unda bolalar kim bilan qoladi" degan. Shundan so'ng K. harakatlarini darhol to'xtatib, "Nima qilib qo'ydim", deb xonadondan chiqib ketgan [3].

Mazkur holatda K. jinoyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'la turib, buning uchun hech qanday to'siqlar mavjud bo'lma-

gan, jinoyatni davom ettirishdan voz kechish ichki motivi asosida yuzaga kelgan va ixtiyoriylik asosida qaror qabul qilingan. Shuning uchun K. qasddan odam o'ldirishdan ixtiyoriy qaytgan va bu holatda odam o'ldirish bilan bog'liq javobgarlik kelib chiqmaydi.

Ma'lumki, "jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy emas, balki majburiy tarzda qaytish javobgarlikni istisno qilmaydi" [3, 25-b., 4, 25-b.; 5, 250-b.]. Jinoyatni majburan to'xtatish qilmishni sodir etish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday holda, jinoyatning yakunlanishi noma'lum muddatga kechiktiriladi, jinoyat izlari yuzaga kelib, jinoyat sodir etish joyida ushlanish xavfi ortadi va jinoyatning fosh bo'lish ehtimoli kuchayadi.

Masalan, *B. I.ning nomusiga tegmoqchi bo'lgan vaqtda I. B.ga bir necha marotaba og'riqli zarbalar berishi natijasida B. jinoyatini to'xtatgan.* Mazkur holatda, B. qilmishini o'z xohishiga ko'ra oxiriga yetkazmagan, biroq jinoyat vaqtida tan jarohati olishni istamaganligi va fosh bo'lish ehtimoli yuqori bo'lganligi sababli qilmish to'xtatilgan. Mazkur holatda B. ixtiyoriy qaytgan deb topilmaydi [3].

Quyidagi misolni ham keltirish o'rinli. *Korxonada P. katta miqdordagi pulni olib, buxgalteriya seyfiga solib qo'yganligini ko'rgan L. uning pullarini talon-taroj qilishga qaror qiladi. Shu maqsadda buxgalteriya oynasini sindirib, xonaga kirib, o'zi bilan olib kelgan mix yordamida bir soat davomida seyf qulfini ochmoqchi bo'ladi, so'ng jinoiy faoliyatini to'xtatib, voqea joyidan yashirinadi* [3]. Nazarimizda, mazkur misolda L. jinoyat sodir etishni ongli ravishda, o'zining qarori asosida to'xtatgan bo'lsa-da, ixtiyoriy qaytish deb topilmaydi. Sababi L. qo'llagan jinoyat qurolining yaroqsizligi tufayli mulkni olish imkonsiz bo'lgan va shuning uchun jinoyat majburan to'xtatilgan.

"Shaxs o'zi boshlagan jinoyatni oxiriga yetkazish imkoniyatini istisno qiluvchi o'tib bo'lmas to'siqlar mavjud deb (hattoki yang-

lish) o'ylashi, jinoyat sodir etishdan qaytishning ixtiyoriy emas, balki majburiy bo'lganligidan dalolat beradi. *Misol uchun, shaxs o'zganing mulkini talon-taroj qilish maqsadida qonunga xilof ravishda kirgan uyda o'rnatilgan o'ziga notanish moslamani signalizatsiya vositasi deb o'ylab, uyni tark etadi*" [6, 243-b.; 7, 20-b.].

"Jinoyatni ixtiyoriy qaytish deb baholashda jinoyat sodir etish joyida aybdor tomonidan ko'zda tutilmagan tashqi omillarning yuzaga kelishi (jinoyat joyida odamlarning paydo bo'lishi, o'tib ketayotgan transport vositasi, to'satdan paydo bo'lgan yorug'lik va h.k.) natijasida jinoyatni to'xtatish holatlarini baholash muammolarni yuzaga keltiradi. Murakkablik shundaki, aslida mazkur omillar jinoyatning davom etishiga to'sqinlik qilmaydi yoki amalga oshirilishiga xalaqit bermaydi. Biroq jinoyatni oxiriga yetkazish imkoniyati faqat moddiy to'siqlar yuzaga kelganligi bilan bog'liq emas. "Imkoniyat" atamasi qonunda ixtiyoriylik tushunchasini aniqlovchi sifatida namoyon bo'ladi va mazkur tushunchadan ajratilmagan holda talqin etilishi mumkin emas. Shuning uchun jinoyatni oxiriga yetkazish imkoniyatini cheklovchi holatlar haqida so'z yuritganda faqat moddiy va jismoniy to'siqlar bilan birga, aybdorga ruhiy ta'sir etuvchi real tahdidlar ham nazarda tutilishi lozim. Masalan, jinoyat joyi yaqinida odamlarning paydo bo'lishi jinoyatning davom etishiga jismoniy to'siq hisoblanmaydi, lekin aybdorning fosh bo'lish xavfini yuzaga keltiradi, tabiiyki mazkur holat shaxs uchun no-maqbul hisoblanadi. Bunday omil xulq-atvorni tashqi tomondan (jismoniy jihatdan) cheklemasdan, ichki xulq-atvorni cheklovchi belgi hisoblanib, ixtiyoriylikni istisno etadi. Shuning uchun jinoyatni to'xtatish irodaviy bo'lsa-da, lekin unda ixtiyoriylik xususiyati mavjud bo'lmaydi. Mazkur holatda yuzaga kelgan tashqi omil ruhiy jihatdan emas, balki ijtimoiy ma'noda shaxsni o'z manfaati uchun harakat qilishga majbur qiladi, harakatlar moslashuvchanlikka, boshqalarni aldashga

olib keladi, bu ixtiyoriylikning belgisi bo'lgan irodani erkin, majburlovsiz ifoda etish belgisiga muvofiq kelmaydi [3]. *Talabalar turar joyi rahbari I. shu talabalar turar joyida ishlovchi xodima L.ning nomusiga tegish maqsadida yotoqxonada eshigini ichkaridan qulflab, jabrlanuvchini yechintirib, yerga uloqtirib yuborgan. Shu vaqtda talabalar yotoqxonada eshigini taqillata boshlaganidan I. qo'rqib ketib, L.ni qo'yib yuborgan [3].*

I. qilmishini oxiriga yetkazish imkoniyatiga ega bo'lgan, biroq tashqi tomondan fosh bo'lish ehtimoli (belgisi) yuzaga kelganligi sababli jinoyatini to'xtatgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, jinoyatga to'siq bo'ladigan omil sifatida aybdorning fosh bo'lishi va javobgarlikka tortilishi xavfi yuzaga kelishini shaxsga nisbatan jinoyat javobgarlik kelib chiqishi mumkin bo'lgan boshqa holatlardan farqlash lozim. Masalan, shaxs o'g'irlik jinoyatini sodir etish jarayonida xonadonda mavjud bo'lgan JK tegishli moddasi bilan tanishib chiqib, jinoyatini to'xtatsa, shaxsning mazkur xatti-harakati ixtiyoriy hisoblanadi. Bunday holatda Jinoyat kodeksi mavjudligining o'zi fosh bo'lish xavfini yuzaga keltirmaydi, balki shaxs xatti-harakati va uning oqibatlarini tahlil qilishi uchun turtki hisoblanadi.

Demak, jinoyatdan ixtiyoriy qaytishda jinoyat sodir etishga to'siq qiladigan holatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur holatlar o'z xususiyati va jinoyat sodir etayotgan shaxsga ta'siriga ko'ra ikkiga ajratilishi maqsadga muvofiq: a) *yengib bo'lmaydigan holatlar*; b) *qiyinchilik tug'diradigan holatlar*. "Aytish kerakki, jinoyat huquqi doktrinasida yuzaga kelgan holatlarning qaysi toifaga kirishi, yoki qiyinchilik tug'diradigan holatlar yuzaga kelganda ixtiyoriy qaytish mumkinmi, degan masalalar yuzasidan yagona yondashuv shakllanmagan" [8, 45-b.; 9, 20-b.]. Ixtiyoriy qaytish yuzasidan olib borilgan tadqiqotda jinoyatni oxiriga yetkazishga to'siq qiluvchi omillarni subyekt tomonidan bartaraf etishning

obyektiv imkoniyatiga ko'ra quyidagilarga ajratilgan:

- 1) yengib bo'lmaydigan holatlar;
- 2) jiddiy to'siq qiluvchi holatlar;
- 3) to'siq qiluvchi holatlar [8, 45-b.].

Yengib bo'lmaydigan holatlar (to'siqlar) shaxs irodasiga bog'liq bo'lmagan holda yuzaga kelgan, jinoyatni oxiriga yetkazishni istisno qiluvchi holatlar hisoblanadi. Bunda ijtimoiy xavfli qilmish amalga oshirilishi yoki boshlangan qilmish oxirigacha yetkazilishi mumkin emas. Ijtimoiy xavfli qilmishni davom ettirish imkonsizligi sababiy bog'lanishning tahlili asosida aniqlanadi. Shaxsning yuzaga kelgan to'siqlarga nisbatan munosabati alohida ahamiyat kasb etadi [8, 46-b.]. Demak, yengib bo'lmaydigan to'siqlar vujudga kelgan vaqtda shaxs jinoyat faoliyatini davom ettirishi mumkin emasligini anglagan bo'lsa, jinoyatdan ixtiyoriy qaytish deb baholanmasligi lozim [10, 203-b.]. Chunki shaxs jinoyatdan ixtiyoriy emas, balki majburan voz kechgan hisoblanadi.

K va P. o'zaro oldindan til biriktirib, avtomashinani noqonuniy egallab olish maqsadida taksi haydovchisiga hujum qilib, uni o'ldirishga til biriktiradi. Jinoyat rejani amalga oshirish uchun taksi chaqirtirib, yo'lda P. haydovchi G.ning bo'ynini arqon bilan bo'g'a boshlagan, K. esa haydovchining bo'yniga pichoq urgan. Haydovchi faol qarshilik ko'rsatib, bo'yniga o'ralgan arqondan qutulib, avtomashinadan sakrab tushib, fuqarolarni yordamga chaqirgan. Shundan so'ng P. va K. avtomobil ichida mashina kalitini topa olmay, voqea joyidan qochib ketadi [4, 27-b.]. Fikrimizcha, jabrlanuvchining faol qarshiligi oqibatida K. va P. jinoyat maqsadiga erishmagan. Voz kechishning "ixtiyoriyligi" belgisini baholash aybdorning jinoyatini oxiriga yetkazish real imkoniyatini aniqlashni nazarda tutadi. Mazkur holatda qilmish aybdor tomonidan yengib bo'lmaydigan holat (G.ning faol qarshiligi, voqea joyidan qochib ketganligi) natijasida oxiriga yetkazilmagan. Qilmish boshlangan, biroq oxiriga yetkazilishi majburan to'xtatilgan, ix-

tiyoriylik mavjud emas. K. va P. tomonidan tugallangan bosqinchilik va bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib qasddan odam o'ldirishga suiqasd sodir etilgan.

Jiddiy to'sqinlik qiluvchi holatlar subyektning jinoyat sodir etish haqidagi dastlabki tasavvuridan sezilarli darajada farqlanadi va shunga ko'ra jinoyatni oxiriga yetkazishga to'sqinlik qiladigan holatlar bo'lib, bunday vaziyatda qilmish makon va zamonda rivojlanishi ham mumkin [8, 45-b.].

To'sqinlik qiluvchi holatlarning yuz berishi qilmishni davom ettirish imkoniyatini istisno etmaydi hamda shaxsning jinoyatni davom ettirish yoki undan voz kechishi oldindan noma'lum hisoblanadi [8, 45-b.]. To'sqinlik qiluvchi va jiddiy to'sqinlik qiluvchi holatlar qilmishni davom ettirishning obyektiv imkoniyatiga ko'ra farqlanadi. To'sqinlik qiluvchi holatlar subyekt uchun kutilgan yoki kutilmagan holatda yuzaga kelishi mumkin. Jiddiy to'siqlar, odatda subyekt uchun kutilmagan holatda vujudga keladi. Aytish kerakki, to'siqlarni farqlash mezon barcha holatlarni qamrab olmaydi. Shaxs tomonidan jinoyat sodir etish jarayonida yengib o'tolmaydigan holatlar yuzaga kelishi ehtimolini bilsa-da, ular yuz berishiga umid qilishi mumkin. Mazkur masalada quyidagi fikr keltiriladi. "Jinoyat sodir etishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni o'zaro farqlash maqsadida mazkur to'siqlar yuzaga kelganda harakatlarni davom ettirish imkoniyati mavjudligini aniqlash uchun jinoyatning obyektiv ko'rsatkichlari (subyektning yoshi, qobiliyati, ko'nikmasi) va subyektiv ko'rsatkichlari (subyektning individual qobiliyatlari) asosida baholanishi lozim. Yuz bergan to'siqlar noodatiy bo'lganda, qo'shimcha mezonlar subyektning individual qobiliyatlari asosida baholanishi, jumladan, subyekt ularni bartaraf etishi yoki yengib o'tishi mumkin bo'lganda, yuz bergan to'siqlar jiddiy to'sqinlik qiluvchi holatlar deb topilmaydi. O'z navbatida, ularning mavjudligi ixtiyoriy qaytishga ta'sir ko'rsatmaydi" [8, 46-b.].

Yuqoridagilar asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin. Bizningcha, qilmish makon va zamonda rivojlanishi mumkin bo'lmagan holatda (ya'ni yengib bo'lmaydigan to'siqlar mavjud bo'lganda) yoki qilmish makon va zamonda rivojlanishi mumkin, biroq subyektning jinoyat sodir etish haqidagi dastlabki tasavvuridan boshqacha holat yoki sharoit vujudga kelganda shaxs tomonidan boshlangan jinoyatini oxiriga yetkazish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

Nazarimizda, "ixtiyoriylik" belgisini aniqlashda obyektiv va subyektiv belgilar muhim hisoblanadi. Obyektiv belgi jinoyat sodir etishni boshlagan shaxsning jinoyatni oxiriga yetkazishning real imkoniyati mavjudligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, "jinoyat sodir etish jarayonidagi holat va mazkur holatda shaxsning qanday harakat qilganligi muhim. Bunda ikkita belgi mujassamlashgan bo'lishi lozim: 1) qilmishning makon va zamonda sababiy bog'lanish qonuniyati asosida rivojlanish imkoniyati mavjudligi; 2) subyektning jinoyatni oxiriga yetkazish uchun muayyan xususiyatlarga egaligi (jismoniy qobiliyati, bilimi, malakasi, qo'shimcha vositalarning mavjudligi va h.k.)". [11, 494-b.] Mazkur belgilarning jamlanmasi ixtiyoriylik belgisining obyektiv mezonini tashkil etadi.

Shu bilan birga, ayrim hollarda, shaxs yuzaga kelgan vaziyatni to'g'ri baholay olmasligi mumkin, masalan, shaxs amalda jinoyatni oxiriga yetkazish uchun imkoniyati mavjud, degan noto'g'ri xulosaga kelishi mumkin, lekin amalda bunday imkoniyat mavjud bo'lmasligi yoki aksincha, jinoyat sodir etish uchun zarur shart-sharoit bo'lmasligi, lekin shaxs jinoiy rejani amalga oshirish uchun hech qanday to'siqlar mavjud emas deb hisoblashi mumkin.

Shuning uchun ixtiyoriylik belgisini baholashda obyektiv mezon bilan birga, subyektiv mezon (subyektning jinoyatni davom ettirish obyektiv imkoniyatini anglaganligi) ham inobatga olinishi zarur. Boshqacha qilib

aytganda, jinoyatni sodir etishni boshlagan shaxs jinoyatni tugatishga hech qanday to'siq yo'qligiga ishonib, jinoiy harakatlarni to'xtatsa, aslida bunday to'siqlar mavjud bo'lsa, jinoyatdan voz kechish ixtiyoriy deb topiladi. Shunday qilib, mazkur yondashuv jinoyat huquqi nazariyasidagi subyektiv ayblov tamoyiliga asoslanib, ixtiyoriylik belgisining subyektiv mezon ustuvorligidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, qilmishni ixtiyoriy qaytish deb baholashda obyektiv va subyektiv mezonlarning jamlanmasi e'tiborga olinishi kerak.

“Jinoyatni oxiriga yetkazmaslikda ixtiyoriylik mavjudligini aniqlashda quyidagilar e'tiborga olinishi zarur: birinchidan, subyektiv mezon – shaxsning jinoyatni oxiriga yetkazish imkoniyatini anglaganligi, shuningdek, yengib bo'lmas to'siqlar yoki jiddiy to'siqlar yo'qligini anglaganligi; ikkinchidan, obyektiv mezon – bunday imkoniyatning mavjudligi (haqiqatda yengib bo'lmaydigan yoki jiddiy to'siqlarning mavjud emasligi); uchinchidan, birinchi va ikkinchi o'rtasidagi nomuvofiqlik mavjud bo'lganda (ya'ni obyektiv voqelikning ongda noto'g'ri aks etishi), obyektiv voqelikni subyektning ongida adekvat aks ettirish imkoniyati mavjudligini aniqlash kerak. Agar bunday imkoniyat mavjud bo'lsa, obyektiv mezonga ustunlik beriladi, u mavjud bo'lmasa, subyektiv mezonga ustunlik beriladi” [8, 55-b.]. Biz ham muallifning mazkur fikriga qo'shilamiz.

Darhaqiqat, jinoyatni davom ettirishga jiddiy to'sqinlik qiluvchi holatlar yuzaga kelganda jinoyatdan ixtiyoriy qaytish masalasi ni hal etish murakkab hisoblanadi. Jinoyatni davom ettirishni qiyinlashtiruvchi holatlar kutilmagan tarzda jinoiy qilmishni sodir etish jarayonida yuzaga kelib, shaxs xulq-atvoriga yetarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Mazkur to'siqlar shaxs tomonidan bartaraf etilishi ham mumkin. Jinoyatni sodir etayotgan shaxs jinoyatni davom ettirishdan voz kechgan hollarda, qilmishning qanday kvalifikatsiya qilinishi ahamiyatli hisoblanadi.

Qasddan sodir etiladigan jinoyat muayyan to'siqlarni bartaraf etish orqali sodir etiladi, shuning uchun shaxs mazkur to'siqlarning yuzaga kelishi mumkinligi, ularni bartaraf etish, yengib o'tish real imkoniyati mavjudligini angelaydi va ixtiyorini o'zida saqlab qoladi. Shuning uchun mazkur holatda qilmish jinoyatdan ixtiyoriy qaytish deb topilishi lozim.

Qilmishni oxiriga yetkazish imkoniyatini istisno etmaydigan, biroq sezilarli darajada murakkablashtiradigan holatlar yuz berganda jinoyatdan voz kechishni ixtiyoriy qaytish yoki jinoyat deb baholash qiyinchilik tug'diradi.

Aybdor jinoiy sherigi bilan oldindan til biriktirib, o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish, jinoiy sherigi esa mol-mulkni tashish uchun avtomashinada kutib o'tirishga kelishadi. Kelishuvga ko'ra, aybdor o'zganing xonadoniga kirgan vaqtda, jinoiy sherigi unga shartli belgi berib, avtomashinani topa olmaganligini xabar beradi. Mazkur holatda jinoyatni davom ettirish imkonsiz hisoblanadi.

Demak, “yuz bergan holat aybdorning fikriga ko'ra, bartaraf etilishi mumkin, lekin qo'shimcha sa'y-harakatlarni talab qilsa hamda shaxs jinoyatni davom ettirishdan ixtiyoriy voz kechgan bo'lsa, (qilmishini davom ettirish mumkin bo'lsa-da, ixtiyoriy qaytish deb topilishi lozim” [12, 127-b.].

Agar shaxs jinoyatni sodir etish jarayonida ushlanish xavfi mavjudligini bilsa, shaxs jinoyatni davom ettirish imkoniyati mavjudligini anglaganligi hamda jinoiy faoliyatni to'xtatish to'g'risidagi xohish-irodasidan kelib chiqish lozim. E'tiborli jihati shundaki, shaxs ushlanishning real xavfi mavjudligini anglagan holda, yuzaga kelgan vaziyat jinoyatni oxiriga yetkazishga imkoniyat bermaydi deb hisoblagan hollarda, (masalan, omborxonada qorovulning kelib qolganligi tufayli o'g'irlik jinoyatini oxiriga yetkazish mumkin emasligi) jinoyatdan ixtiyoriy qaytish deb topilmaydi. Bunday holda shaxs mulkni yashirin ravishda talon-taroj qilishni oxiriga yetkaza olmaydi, biroq shaxsning jinoiy qasdi o'zga-

rib, talonchilik yoki bosqinchilik jinoyatiga aylanib ketishi yoki shaxs jinoyatdan voz kechishi mumkin. Biroq bunday hollarda jinoyatdan qaytish ixtiyoriy deb topilmaydi. Chunki shaxs o'g'irlik jinoyatidan emas, balki talonchilik yoki bosqinchilik jinoyatidan ixtiyoriy qaytgan hisoblanadi, ya'ni o'g'irlik jinoyatidan ixtiyoriy qaytish istisno etiladi. Agar shaxs jinoyatni kimdir tomonidan sezib qolganligiga qaramasdan oxiriga yetkazishini anglagan holda jinoyatdan voz kechsa, jinoyatdan ixtiyoriy qaytish deb topilishi lozim.

Ayrim adabiyotlarda shaxsning jinoyatdan tashqi muhit ta'siri natijasida yoki jinoyat sodir etishning imkonsizligi tufayli ixtiyoriy qaytishi holatlari ikki guruhga ajratilib, tahlil qilingan.

Birinchi guruhga jinoyat quroli yoki vositasi yoxud jinoyat predmetining yaroqsizligi tufayli jinoyat oxiriga yetkazilmaganligi kiradi. Mazkur holat jinoyatdan ixtiyoriy qaytish deb topilmasligi lozim. Chunki shaxs jinoyatdan ixtiyoriy voz kechgan hisoblanmaydi. Ayrim hollarda, jinoyat yuzaga kelgan to'siqlarni bartaraf etib bo'lmasligi tufayli oxirigacha yetkazilmasligi mumkin. Masalan, Tulyaganov o'g'irlik jinoyatini sodir etish maqsadida Z.ning hovlisiga kiradi, Z.ning uyi hovlining narigi burchagida joylashgan bo'lib, eshikni ochqich yordami ochishga urinishiga qaramay, uy eshigini hatto derazalarni ham ocholmaydi. Hovlidan chiqib ketayotgan vaqtda signalizatsiya ishlab ketib, Z.ning hovlisiga yetib kelgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan Tulyaganov qo'lga olinadi. Dastlabki tergov tomonidan Z.ning qilmishi JK 25-, 169-modda 3-qism "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Jinoyat ishlari bo'yicha Chilonzor tumani sudi esa Tulyaganovning qilmishini jinoyatdan ixtiyoriy qaytish sifatida baholaydi [13, 72-b.]. Shuning uchun ayrim mualliflar tomonidan Oliy Sud Plenumi qarorida quyidagicha tushuntirish berilishini taklif etgan. "Jinoyat sodir etish jarayonida yengib bo'lmaydigan to'siqlar yuz bergan va qilmishni davom et-

tirish imkoniyati mavjud bo'lmagan holatlar ixtiyoriy qaytish deb topilmaydi. Yuz bergan to'siqlar qilmish amalga oshirilishini qiyinlashtirgan bo'lsa-da, shaxs jinoyatni davom ettirish imkoniyati mavjudligini anglagan holda to'xtatsa, ixtiyoriy qaytish deb topiladi" [13, 74-b.].

Ikkinchidan, jabrlanuvchining qarshiligini sindira olmaslik, uchinchi shaxslarning aralashuvi yoki aybdor shaxsning qo'lga tushish xavfi mavjudligi hisoblanadi. Mazkur holat jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topilmaydi. Jinoyat oxirigacha yetkazilmagan bo'lib, shaxs qilmishni kelajakda davom ettirish yoki boshqa qulay vaziyatda sodir etish niyatida ixtiyoriy qaytgan hollarda, jinoyatdan ixtiyoriy qaytish deb hisoblanmaydi.

Amaliyotda shunday holatlar ham bo'ladi, shaxs birinchi jinoyatidan og'irroq jinoyat sodir etish maqsadida ixtiyoriy qaytadi. Bunda shaxs jinoyat maqsadiga boshqacha usullar bilan erishishni istab harakat qiladi. Jumladan, rashk motivi natijasida odam o'ldirish uchun o'q-otar qurolga ega bo'lgan shaxs keyinchalik jinoyat maqsadini o'zgartirib, kislota sepib yuzni xunuklashtiradi. Birinchi holatda shaxs qasddan odam o'ldirishdan ixtiyoriy qaytgan bo'lsa, ikkinchi holatda JK 104-moddasi 1-qismi bilan jinoyat sodir etgan. Shunga muvofiq, boshqa jinoyatni sodir etish maqsadida birinchi jinoyatidan ixtiyoriy qaytgan holda, javobgarlik faqat ikkinchi qilmishi uchun yuzaga kelishi lozim. Shuningdek, "jinoyat faoliyatini to'xtatish tashabbusi uchinchi shaxslar tomonidan bo'lgan hollarda ham jinoyatdan voz kechish ixtiyoriy deb hisoblanishi mumkin. Masalan, bir shaxs ikkinchi shaxsni ko'ndirishi natijasida jinoyatdan voz kechishi. Asosiysi "bajaruvchi" ixtiyoriy qaytish bo'yicha maslahat yoki iltimoslarni inobatga olganda ham jinoyatni oxiriga yetkazish imkoniyati mavjudligini anglaganligi muhim. Bunday holatlarda, jinoyatni davom ettirmaslik qarori mustaqil qabul qilinadi" [12, 128-b.]. Ayrim mualliflarning fikrlariga ko'ra, "bunda tashabbus kimdan chiqqanligi

emas, balki shaxs o'z irodasiga ko'ra, boshqa shaxslarning majburlovisiz hamda jinoyatga to'siq bo'ladigan yoki sodir etishni qiyinlashtiradigan boshqa holatlar yuz bermaganda, qilmishni oxiriga yetkazish imkoniyatini anglagan holda, davom ettirishdan voz kechganligi muhim hisoblanadi" [14, 12-b.; 15, 478-b.].

Xulosalar

Yuqoridagilar asosida quyidagicha xulosa-ga kelish mumkin.

Fikrimizcha, jinoyat sodir etishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni yengib bo'lmaydigan

holatlar va yengib bo'ladigan holatlarga ajratish maqsadga muvofiq. Yengib bo'lmaydigan holatlar yuz berganda qilmish ixtiyoriy qaytish sifatida baholanishi lozim. To'sqinlik qiluvchi holatlar yuzaga kelganda, subyektning mazkur holatga nisbatan munosabati inobatga olinishi lozim. Modomiki, subyekt tomonidan mazkur holatlarni bartaraf etish mumkin bo'la turib, subyekt jinoyatdan voz kechsa ixtiyoriy qaytish deb topiladi. Agar shaxs to'siqni bartaraf etish imkoniyati yo'qligini anglagan holda, jinoyat sodir etishni to'xtatasa, ixtiyoriy qaytish deb topilmaydi.

REFERENCES

1. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Tashkent, Nasaf Publ., 2010, 664 p.
2. Tishkevich I.S. Izbrannyye trudy [Selected works]. Minsk, Promyshlennno-torgovoye pravo Publ., 2014, 484 p.
3. Plotnikov A.I. Otgranicheniye dobrovol'nogo otkaza ot vynuuzhdennogo prekrashcheniya prestupleniya [Limitation of voluntary renunciation to stop a crime]. *Current Problems of Russian Law*, 2007, no. 2. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/otgranichenie-dobrovolnogo-otkaza-ot-vynuuzhdennogo-prekrashcheniya-prestupleniya>
4. Sutsiyev S.Yu. Sostavy dobrovol'nogo otkaza ot prestupleniya i deyatel'nogo raskayaniya posle yego soversheniya [Compositions of voluntary renunciation of a crime and repentance after its commission]. PhD thesis. Moscow, 2008, 27 p.
5. Otajonov A.A. Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarilni takomillashtirish [Improving responsibility for crimes committed in participation]. PhD thesis. Tashkent, 2016, p. 250.
6. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. General part. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2021, p. 243.
7. Rustambayev M.X. Jinoyat to'g'risida ta'limot. [It has five roofs. Roof 1. General part. Doctrine of crime]. Tashkent, Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan Publ., 2018, 372 p.
8. Orlova A.I. Dobrovolnyy otkaz ot prestupleniya: problemy teorii i praktiki [Voluntary renunciation of crimes: problems theories and practices]. PhD thesis. Krasnoyarsk, 2007, p. 45.
9. Shakirova A.A. Dobrovolnyy otkaz ot prestupleniya sochastnikov [Voluntary renunciation of crime accomplices]. PhD thesis, Krasnoyarsk, 2006, 181 p.
10. Bezugliy S.N. Otvetstvennost' za neokonchennoye prestupleniye po ugovnomu pravu i zakonodatel'stvu Rossiyskoy Federatsii: problemy teorii i praktiki [Responsibility for an unfinished crime under the criminal law of the legislation of the Russian Federation: problems of theory and practice]. Belgorod, 2017, 203 p.
11. Smith H., Ormerod's. Criminal Law. 15th ed. Oxford University Press, 2018, 1143 p.

12. Reshetnikov A.Y. Dobrovolnyy otkaz ot prestupleniya: problemy teorii i praktiki [Voluntary renunciation of crime: problems of theory and practice]. *Current Problems of Russian Law*, 2017, no. 8, p. 127. DOI: 10.17803/1994-1471.2017.81.8.122-132

13. Kayumov A.S. Dobrovolnyy otkaz ot soversheniya prestupleniya i deyatel'noye raskayaniye po ugolovnomu zakonodatel'stvu Respubliki Uzbekistan [Voluntary renunciation of committing crimes and active repentance under the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, 1998, p. 74.

14. Skorilkina N.A., Skorilkin N.M. Dobrovolnyy otkaz ot prestupleniya [Voluntary renunciation of crime]. Moscow, 2014, p. 12.

15. Ugolovnoye pravo Germanii [German criminal law]. Moscow, Infotropik Media Publ., 2013, 712 p.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 1-SON

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 19,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 37.

TDYU tipografiyasida chop etildi.